

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI
PSIXIATRIYA, NARKOLOGIYA VA TIBBIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat tibbiyot instituti

rektori Sh.J. Teshayev

2025 yil



TIBBIY PSIXOLOGIYA FANI MODUL DASTURI

Bilim sohasi:	900000 -	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000 -	Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari	60910200 -	Davolash ishi (3 -kurs)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Universiteit van Amsterdam, Niderlandiya (**World University Rankings by Subject: Medicine — TOP-50**) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

<https://www.uva.nl/en/programmes/bachelors/biomedical-sciences/biomedical-sciences.html?origin=OUW%2FNlzHRVCfgfmL3cdmVg>

Buxoro 2025 yil

Tuzuvchi:

Muxamadiyeva N.B - BDTI Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya kafedrası mudiri.

Shodiyeva F.B - Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya kafedrası assistenti

Taqrizchilar :

Muxtorova X.K - BDTI –psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya kafedrası dotsenti .

Ismatova M.N – Fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, PhD.

Barcha o'quv-uslubiy hujjatlar kafedra yig'ishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi

Bayonnoma №1 28.04. 2025 yil.

Kafedra mudiri :



Muxamadiyeva N.B

Barcha yo'nalishlarda o'tiladigan fanlarning o'quv- uslubiy hujjatlari institut Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Bayonnoma №1 30.04. 2025 yil

Ta'lim jarayonlarni muvofiqlashtirish

sektori bosh mutaxassisi:



Adilova R.H

Soat hajmi	O'quv yuklama miqdorining auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi (soat)				Mustaqil ish	Nazorat shakllari	Kredit hajmi
	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Klinik mashg'ulot			
60	60	6	24		30	Joriy nazorat Yakuniy nazorat	2

Fan/modul kodi UYT 1104	O'quv yili 2026-2027	Semestr(lar) 1-2-semestr			Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus			Haftadagi dars soatlari		
Fanning nomi Tibbiy psixologiya	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Ma'ruza	Amaliy(seminar) Soat	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
2-semestr	30	6	24	30	60	
Jami :	30	6	24	30	60	

1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni. Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib, orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi. Psixiatriya, narkologiya moduli tibbiyot oliygohlari tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishining 6-semestrda talabalari uchun o'quv dasturi sifatida qabul qilingan. Ushbu modul ruhiy buzilishlarning alohida belgilari (simptomlari), sindromlari, ularning yuzaga kelish mexanizmi va rivojlanishini yoritib beruvchi – umumiy psixiatriya, ruhiy buzilishlarning alohida nozologik shakllarining klinik ko'rinishi, kechish xususiyatlari, qiyosiy tashxisoti, davolash, profilaktika chora – tadbirlarini ko'rib chiquvchi – xususiy psixiatriya hamda psixofaol moddalarni qabul qilish natijasida kelib chiqadigan ruhiy va jismoniy qaramlik muammolarini o'rganuvchi – narkologiya mutaxassisligi asoslarini o'z ichiga qamrab oladi. Modul dasturi boshqa modullar bilan aloqasi: ichki kasalliklar, endokrinologik kasalliklar, asab kasalliklari, yuqumli kasalliklar.

Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya moduli tahsil olayotgan bakalavr shifokorlarga psixologiya moduli, vazifalari, ruhiy buzilishlar va ularni boshqarish mexanizmlari haqida keng tushuncha berib, ularni shifokorlik ishi faoliyatida boshqa kasalliklar bilan ajratib olishda imkon beradi. Modulining tibbiy psixologiya qismi tibbiyot oliygohlari davolash va pediatriya talabalari uchun 6-semestrda o'quv dasturi sifatida qabul qilingan. Tibbiy psixolog – aholiga yuqori malakali tibbiy-psixologik yordam ko'rsatuvchi mutaxassis. Umumiy tibbiyot psixologiyasida talabalarga tibbiy psixologiya metodologiyasi, psixologik suhbat qurish va psixologik anamnez yig'ish usullari, miyaning funksional anatomiyasi, klinik tibbiyotda psixologik testlarni tanlab qo'llash texnologiyasi, aholi orasida psixogigiena va psixoprofilaktikani o'tkazish uslublari, bilish jarayonlarini tekshirish

usullari, klassik va zamonaviy psixoterapiya usullari, neyropsixologiya va neyropsixologik tekshirish usullari, psixosomatik buzilishlar va organik kasalliklarni aniqlashda paraklinik tekshirish usullari o'rgatiladi. Tibbiy psixologiya moduli anatomiya, normal fiziologiya, nevrologiya va psixiatriya modullari bilan uzviy bog'langan.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi – psixiatriya va narkologiya talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'zgartirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali psixiatrik va narkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik ko'rinishlari, kechish turlari, tashxis va qiyosiy tashxislari hamda davolash va parvarish usullari, kasallikni oldini olish chora – tadbirlarini o'rgatishdan iboratdir.

Tibbiyot psixologiyasini o'qitishdan maqsad talabalarga tibbiyopsixologik tekshirish qonun-qoidalari, psixologik suhbat qurish uslublari, psixogigiena, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixoterapiya va funksional tekshirish usullari haqida mukammal bilim berish. Shuningdek, tibbiy psixologiyada bilish jarayonlarini o'rgatish va ularni tekshirishni o'rgatish ham modul dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

2.2. Modulning vazifalari:

- modulning bo'limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichma – bosqich tanishtira borish va o'rgata borish;
- ko'nikmalarni xosil qilish;
- yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'zgartirish va bilimni saqlash darajasini oshirish;
- talabaning klinik fikrlash qobiliyatini o'zgartirishga;
- modul sohasiga taalluqli psixiatrik va narkologik bemorlarni tashxisi va qiyosiy tashxis bosqichlarini davolash;
- parvarish va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to'g'risida ma'lumot berish.

2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

- etika va deontologiyaning asosiy tamoyillari;
- aholiga psixiatrik va narkologik yordamni tashkillashtirishning asosiy tamoyillari;
- psixiatriya va narkologiyada qo'llaniluvchi asosiy zamonaviy tekshiruv usullarini;
- keng tarqalgan ruhiy va narkologik kasalliklarning etiopatogenezi, klinikasi, kechuvi va prognozi;
- psixofarmakoterapiya, psixoterapiya va psixoprofilaktikaning asosiy tamoyillari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- psixiatrik va narkologik bemorlarda asosiy tekshirish usullarini o'tkazishni (so'rov, ko'rik, ruhiy holatni baholash);
 - etakchi klinik sindromni ajrata olishni;
 - klinik simptomatikasi o'xshash kasalliklarni qiyosiy tashxislash;
 - ruhiy va narkologik bemorlarni ambulator davolash va gospitalizasiya qilish uchun ko'rsatmalarni aniqlashni;
 - tibbiy hujjatlar va mutaxassis psixiatrga berilgan yo'llanmalarda ruhiy statusni yoritishni;
 - psixoprofilaktika va psixogigiena chora tadbirlarini;
 - sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

professional so'rov o'tkazish va ruhiy holatni yoritish;

- psixomotor qo'zg'alishni bartaraf qilish va bemorni fiksasiya qilish;
- psixoaktiv moddalarga (PAM)ga qaramlilikning ob'ektiv belgilarini aniqlash;
- epileptik tutqanoq va epileptik statusli bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- suisidal hulqli bemorlarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatish *malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

Talaba:

–O‘zbekistonda va xorijda tibbiyot psixologiyasining rivojlanish tarixi;

- profilaktik tibbiyotda tibbiy psixologiyaning o‘rni;
- psixogigiena va psixoprofilaktika asoslari;
- psixosomatik tibbiyot asoslari va psixosomatik sindromlar klinikasi;
- ichki kasalliklarda psixoterapevtik yordamni tashkil etish;
- bolalik va o‘smirlik davri psixologiyasi;
- suisid sabablari va profilaktikasi;
- nevroz va depressiya;
- tibbiyotda psixodiagnostika, psixoterapiya va psixoreabilitasiya asoslari haqida *tasavvurga ega bo‘lishi kerak.*
- davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy-psixologik yordamni tashkil etish asoslari;
- psixoprofilaktika va psixogigiena asoslarini;
- “vrach-hamshira-bemor” uchligi;
- sezgi, idrok, shaxs, temperament, xarakter, hissiyot, stress, ong;
- psixosomatik buzilishlarda epidemiologik tekshiruvlar o‘tkazishni;
- psixogigiena, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixoterapiya va psixoreabilitasiyasini *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
- psixologik suhbat qurish usullari;
- psixologik anamnez yig‘ish usullari;
- psixogigiena va psixoprofilaktikani uslublari;
- epidemiologik tekshiruvlar o‘tkazish;
- tibbiy-psixologik anketani to‘ldirish;
- psixologik testlarni tanlab qo‘llash;
- tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish sxemasini tuzish;
- psixoreabilitasiyani tashkillashtirish asoslari kabi *amaliy ko‘nikmalarga (shu jumladan, klinik amaliy ko‘nikmalarga) ega bo‘lishi kerak.*

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)

(<https://bsmi.uz/wp-content/uploads/2026/04/3-kurs.-modul-dasturi.dav-2-1.docx>)

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg‘ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:

- **1-mavzu. Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya fani. Uning maqsad va vazifalari, tarixi. Miya va ruhiy jarayonlar. Kasalliklarning psixologik strukturasi**
- Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya fani, maqsad va vazifalari. Aholining ruhiy salomatligini saqlashda tibbiy psixologiya va psixoterapiyaning ahamiyati. Tibbiy psixologiya rivojlanishida xorijlik va yurtimiz olimlarining tutgan o‘rni. Miya va ruhiy jarayonlar. “Vrach-hamshira-bemor” uchligi. Kasalliklarning psixologik strukturasi.
- **2-mavzu. Psixosomatik tibbiyot asoslari. Psixosomatik va somatopsixik munosabatlar. Shaxs tipologiyasi.**
- Psixosomatik tibbiyotning maqsad va vazifalari. O‘zbekistonda psixosomatik tibbiyotni rivojlantirish kontseptsiyasi va istiqboli. Psixosomatik buzilishlar etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, psixogigienasi, psixoprofilaktikasi va psixoterapiyasi. Psixogen sefalgiya, psixogen nevrалgiyalar, psixogen kardialgiya, psixogen astma, psevdorevmatizm, ta’sirlangan ichak sindromi.
- **3-mavzu. Psixoterapiya va psixofarmakoterapiya asoslari. Klinik neyropsixologiya**
- Psixoterapiya turlari: ratsional, geshtaltpsixoterapiya, gipnoterapiya, psixodinamik, kognitiv-bixeviorial terapiya. Psixofarmakoterapiya: antidepressantlar, trankvilizatorlar, psixostimulyatorlar, sedativ dori

vositalari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- **1-mavzu:** Tibbiy psixologiya fani, vazifalari va qisqacha tarixi. Miya va ruhiy jarayonlar. Ruhiyat shakllanishining asosiy bosqichlari.
- **2-mavzu:** Tibbiy psixologiyada bemorlarni tekshirish metodologiyasi. Ruhiy jarayonlarni psixologik tekshirish asoslari. Hissiyot va stress. Kognitiv buzilishlar. Psixologik testlar va ularni qo'llash qoidalari
- **3-mavzu:** SHaxs, temperament va xarakter.shaxs xususiyatlarini tekshirishda psixologik testlar va ularni qo'llash qoidalari Psixologik yordam turlari Psixologik himoya mexanizmlari
- **4-mavzu:** Psixosomatik tibbiyot: psixosomatik buzilishlar turlari, klinikasi, diagnostikasi va psixoterapiyasi
- **5-mavzu:** Psixoterapiya va psixofarmakoterapiya turlari. Bemorlarga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatishning asosiy qonun-qoidalari Psixogigiena va psixoprofilaktika asoslari

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodiy jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida talabalar ambulator sharoitda psixiatrik va narkologik bemorlarda asosiy tekshirish usullarini o'tkazishni (so'rov, ko'rik, ruhiy holatni baholash), etakchi klinik sindromni ajrata olishni, klinik simptomatikasi o'xshash kasalliklarni qiyosiy tashxislashni, ruhiy va narkologik bemorlarni ambulator davolash va gospitalizasiya qilish uchun ko'rsatmalarni aniqlashni va shoshilinch yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Ruhiy bemorlarda professional so'rov o'tkazish va ularning ruhiy holatini yoritish;
2. Psixomotor qo'zg'alishni bartaraf etish va bemorlarni fiksasiyasini amalga oshirish;
3. PAV (psixoaktiv vosita)ga qaramlikning ob'ektiv belgilarini aniqlash;
4. Epileptik tutqanoq va epileptik statusda shoshilinch yordam ko'rsatish;
5. Suisidal xulqli bemorlarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatish;

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

- UK 1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga taykompeyorlik;
- UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;
- UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun ogʻzaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgarlik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinasiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam koʻrsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam koʻrsatishni taʼminlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam koʻrsatishda koʻzda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

4. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar, tashkil etish boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular roʻyxati:

1. Oliy ruhiy funktsiyalar Intellektual rivojlanishning asosiy bosqichlari
2. Suitsidologiya
3. Psixozanaliz va psixodinamik terapiya Geshtaltpsixologiya va bixeviorizm
4. Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy-psixologik xizmat
5. Tez tibbiy-psixologik yordam Harbiy psixologiya va psixoterapiya

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Tibbiy psixologiya moduli boʻyicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu boʻyicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning boʻlimlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) boʻyicha ishlash va maʼruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga maʼruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammolarga yoʻnaltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) echish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va toʻldirish;
- krossvordlar tuzish va echish;
- prezentasiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qoʻllash va h.k.

4.3. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlarni tashkil etish boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

Tibbiy psixologiya moduli boʻyicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari oʻtkaziladi. Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashgʻulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy koʻnikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy koʻnikmalarni oʻzlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik oʻquv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan roʻyxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan pasientlar (bemorlar) kurasiyasini oʻtkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik oʻquv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy koʻnikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni kurasiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, ruhiy salomatlikni saqlash tamoyillari haqida suhbat va maʼruzalarni oʻtkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayirlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) echish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari:

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Ibodullayev Z.R. Tibbiy psixologiya Darslik. Toshkent .Credo print .2019.
2. Muxtorova X.K., Muxamadiyeva N.B. Ruhiiy kasalliklar sindromologiyasi va tibbiy psixologiya asoslari O'quv qo'llanma Buxoro. Durdona nashriyoti, 2020 y.
3. Менделейвич В.Д. Клиническая и медицинская психология Учебник2020й
4. Фрулова Ю. Г. Медицинская психология.. минск “высшейшая школа” . Учебник2016й
5. Vitenko S.I., Isakov R.I., Rud V.O., Medical psychology Dyvosvit , 2010

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ibodullayev Z.R. Tibbiy psixologiyada tekshirish usullari. Metodik qo'llanma. Toshkent. Zaminnashr. 2018y.
2. Ibodullayev Z.R. Neyropsixologik tekshirish usullari. Metodik qo'llanma. Toshkent. Zaminnashr. 2018 y.
3. Карвасарский Б.Д. Клиническая психология (5-е издание). Учебник для вузов. Санкт-Петербург. Издательство “Питер”., 2018 г.

5.3. Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz;
2. www.s-psy.ru
3. www.psychiatry.ru,
4. www.medlibrary.ru
5. www.medline.ru
6. www.med.ru